

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA XULQ-ATVOR MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AXLOQIY JIHATLARI

*Karimova Shoiraxon Baxtiyarovna*

*Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi*

*Razzoqova Farangiz, Maxmudova Mubinaxon*

*Qo`qon DPI talabalari*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda xulq-atvor madaniyatini shakllantirishda axloqiy tarbiyaning ahamiyati, axloqiy tarbiyalanganlik darajasi, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy-ma`naviy tajriba to`plash malakalarini rivojlanтирish borasida ma`lumotlar berilgan.

**Kalit so`zlar:** maktabgacha yosh, xulq-atvor, madaniyat, odob-axloq, muloqot, axloqiy me`yorlar, axloqiy sifatlar, ijtimoiy rivojlanish, ta`lim.

Bugungi kunda yurtimizda maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyalanish imkoniyatlari kengaydi. Bu ko`p jihatdan maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy va emotsiunal-irodaviy rivojlanishidagi, katta yoshli kishilar va o`z tenqurlari bilan muloqot qilishidagi katta o`zgarishlar bilan ham, hayotining dastlabki besh yoshiga kelib bolada mavjud bo`lgan axloqiy tarbiyalanganlik darajasi bilan hamtenglashtiriladi. Bolalardagi yangi qirralar ularning katta yoshli kishilar va o`z tenqurlari bilan muloqot qilishlarida paydo bo`ladi. Bolalar katta yoshli kishilar bilan mazmunli muloqot qilishga tobora ko`proq qiziqish bildira boshlaydilar. Katta yoshli kishining kimligi (otaponasi, bobo-buvisi, aka-opasi), ularning bildirgan fikr-mulohazalari bolalarning xulq-atvorida jiddiy rol o`ynaydi. Bolalarning o`sib borayotgan mustaqil fikrlari va xulq-atvorini anglaganligi ularning o`z harakatlarida o`zlashtirilgan axloqiy me`yorlarga rioya qilish qobiliyatlarining rivojlanishiga olib keladi. Bunda ichki “etikaviy his-tuy`ular” paydo bo`lib, ular maktabgacha o`rta yoshdagi bolaning harakatlarini belgilab bera boshlaydi.

Hozirgi zamon ta`lim tizimi bolaning madaniyatga jalb etilishi, bolaning bu yo`nalishda o`zini yuzaga chiqarishi, uni bilishi va o`zlashtirish jarayonlaridagi ishtirokchi, sherik yoki yordamchi sifatida katta yoshli kishilar bilan o`zaro harakatlarni amalga oshirish sharoitlari bolaga madaniyat qadriyatlarini ochib berish jarayoni tarzida olib qaraladi. Davlat ta`lim standartidagi muhim maqsadlardan biri bo`lib bolalar shaxsining umumiy axloqiy madaniyatini shakllantirish, bolalarning axloqiy sifatlarini rivojlanish hisoblanadi.

“Ilk qadam” maktabgacha ta`lim tashkilotining Davlat o`quv dasturida keltirilgan o`yin kompetensiyasida - bolaning o`yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko`nikmalardan ijodiy foydalanishi o`quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi. Ushbu dasturda keltirilgan ijtimoiy kompetensiya- hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me`yorlariga rioya qilgan holda o`zini tuta olish mahoratini ochib bergen.

“Ijtimoiy rivojlanish” ta`lim sohasida o`z ichiga axloq-odob qadriyatlarini olgan va jamiyatda qabul qilingan me`yorlar hamda qadriyatlarni o`zlashtirishga; bolaning o`z tengqurlari va katta yoshli kishilar bilan muloqot qilishi hamda o`zaro harakat qilishini rivojlanirishga; o`z harakatlarida mustaqillik, maqsadga yo`naltirilganlik va ularni tartibga sola bilishning paydo bo`lishiga; ijtimoiy va emotsiunal intellektning, emotsiunal sezgirlikning, tashvishini birga baham ko`rish hissining rivojlanishiga, o`z tengqurlari bilan birgalikda faoliyat yuritishga tayyorlikning shakllanishiga; o`z oilasiga, ta`lim tashkilotidagi o`z tenqurlari va katta yoshli kishilarga hurmat bilan munosabatda

bo`lish va ularga mansublik hissining shakllantirilishiga; mehant va ijodning turli xil shakllariga ijobiy yo`l-yo`riqlarning shakllantirilishiga; maishiy turmushda, jamiyatda, tabiatda xavfsiz xulqatvor asoslarining shakllantirilishiga yo`naltiriladi.

Maktabgacha yoshdagি bola maktab ta`limiga o`tish bosqichida faoliyatning asosiy madaniy usullarini egallagan bo`lishi; faoliyatning har xil turlarida – o`yinda, muloqot qilishda tashabbuskorlik va mustaqillikni namoyon qilishi; atrof-muhitdagi dunyoga, boshqa kishilarga va o`z-o`ziga nisbatan ijobiy munosabat yo`l-yo`riqlariga ega bo`lishi; o`z qadr-qimmati hissiga ega bo`lishi; o`z tenqurlari va katta yoshli kishilar bilan faol o`zaro harakat qila bilishi; o`z his tuyg`ularini namoyon qila bilishi, shu jumladan, o`ziga ishonch hissiga ega bo`lishi, nizolarni hal qilishga intila bilishi kerakdir. Bolalar faoliyatning har xil turlarida o`z tengqurlari bilan muloqot qilishga faol intila boshlaydilar, buning natijasida “bolalar jamiyati” yuzaga keladi. Bunday holat jamoaviy o`zaro munosabatlarning tarbiyalanishi uchun ma`lum bir shart-sharoitlarni yaratadi. O`z tengqurlari bilan mazmunli muloqot qilish maktabgacha o`rtal yoshdagи bola shaxsining to`laqoni shakllanishida muhim omilga aylanadi. Jamoaviy faoliyatda (o`yinda, birga ishlashda, muloqot qilishda) 5-6 yoshli bolalar jamoaviy rejalshtirish mahoratini o`zlashtiradilar, o`z harakatlarini kelishib olishni o`rganadilar, nizolarni haqqoniy hal qilishni va umumiyl natijaga birgalikda erishishni o`rganadilar. Bularning barchasi axloqiy-ma`naviy tajriba to`planishiga yordam beradi. O`yinli va mehnat faoliyati bilan bir qatorda 5-6 yoshli bolalarning axloqiy tarbiyalanishlarida o`quv faoliyati ham sezilarli ahamiyatga ega bo`ladi. Lekin shunga qaramasdan, maktabgacha o`rtal yoshdagи bolalarda xulq-atvorning beqarorligi, ba`zi vaziyatlarda chidamlilikning mavjud bo`lmasligi, xulq-atvorning ma`lum usullarini yangi shart-sharoitlarga moslashtira olmaslik kabilar ham kuzatiladi. Maktabgacha o`rtal yoshdagи bolalarni tarbiyalash jarayonida odob his-tuyg`ulari va axloqiy tasavvurlar bosqichma-bosqich shakllanib boradi. Bunda bolalarning his-tuyg`ularini rivojlantirishga va boyitishga, ularni boshqarish qobiliyatining shakllantirilishiga katta e`tibor qaratiladi. Bu yoshda bolalarning atrofdagi kishilarga (katta yoshli kishilarga, o`z tengqurlariga va o`zidan kichik bolalarga), mehnatga, tabiatga, muhim ijtimoiy voqeа-hodisalarga, Vatanga bo`lgan munosabatlarini belgilab beradigan axloqiy his-tuyg`ulari tarbiyalanadi. Ularda o`z tengqurlariga nisbatan ijobiy his-tuyg`ularning keyingi rivojlanib borish bochqichi amalga oshadi, bunda bolalar tomonidan ularning bir-birlariga do`stona munosabatda bo`lishlari, g`amxo`rliklari, hamkorlikka intilishlari, umumiyl maqsadga erishishlari, o`zaro yordam ko`rsatishga tayyorliklari namoyon bo`ladi. Maktabgacha yoshdagи bolalarning xulq-atvor madaniyati ularing axloqiy xulq-atvori bilan o`zaro ajralmas yaxlitlikda shakllanadi. Madaniy xulq-atvor odatlari tarkibi sezilarli ravishda boyiydi: bolalar jamoatchilik joylari (transport, ko`cha, kutubxona va h.k.)da, turli xildagi (tanishlar va notanishlar bilan) muloqot qilish vaziyatlaridagi xulq-atvor qoidalarini o`zlashtiradilar. Har doim xushmuomala bo`lish, katta yoshlilar va kichiklar haqida g`amxo`rlik qilishni faol namoyon qilishga tayyorlik, katta yoshli kishilarning mehnati natijalariga, ular faoliyatiga ehtiyojkorona munosabatda bo`lish odatlari tarbiyalanadi. Nutq madaniyati, axloqiy sifatlar (to`g`riso`zlilik, adolatlilik, kamtarlik)ning shakllanishi davom etib boradi. Muloqot qilish madaniyatini tarbiyalash o`z ichiga bolalar tomonidan keyinchalik o`z tengqurlariga nisbatan xushmuomala bo`lish qoidalarining o`zlashtirilishi va hamkorlikdagi faoliyat – o`yinli, mehnat, o`quv faoliyatları madaniyatini shakllantirishni oladi.

Shunday qilib, maktabgacha yosh davri shu yoshdagи bolalarning umuman shaxs sifatida shakllanishida, bolalarning xulq-atvor madaniyati va faoliyati mexanizmlarini rivojlanishida eng ma`suliyatli davr bo`lib hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan davlat talablari. Toshkent. 2018 y
2. “Ilkqadam” davlat dasturi (takomillashgan) Toshkent 2022 yil.

- Actual problems in higher education in the era of globalization
3. Каримова, Шоира Бахтияровна. "ХАЛҚ ҚҮШИҚЛАРИ ВА ЎЙИНЛАР БОЛАЛАРДА МИЛЛИЙ ҒУРУР ҲИССИНИ ТАРБИЯЛАШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА." *International Conference of Education, Research and Innovation*. Vol. 1. No. 2. 2023.
  4. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOYIHALASHTIRISHNING AFZALLIKLARI (TRIZ TEXNOLOGIYALARI)." "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. 2023.
  5. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "O'QUVCHILARDADA XULQ-ATVOR SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITALARIDAN FOYDALANISH." *Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III* (2023): 94-98.
  6. Anvarovna, Sultonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1
  7. Anvarovna, Sultonova Nurkhon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.6 (2022): 169-173. (2023).
  8. Bakhodirovna, Halkuzieva Dilnoza. "Personality-Oriented Education in the Development of Creative Activities of Future Educators." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 1.8 (2023): 432-435.
  9. Султонова, Нурхон Анваровна. "Теоретические основы подготовки детей в современных условиях к социальной жизни в семье." *Scientific progress* 1.6 (2021): 631-635.
  10. Султонова, Нурхон. "ОРГАНИЗАЦИЯ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДОШКОЛЬНИКОВ В РАЗВИВАЮЩИХ ЦЕНТРАХ." *Interpretation and researches* 1.1 (2023).
  11. F.Qodirova Maktabgacha pedagogika-Toshkent 2019 yil
  12. Mahkamov U. Ahloq-odob saboqlari–T.: Fan, 1994.